



## “ARAB BAHORI” VOQEALARIDAN KEYIN MISR TASHQI SIYOSATI: IQTISODIY VA GEOSIYOSIY DETERMINANTLAR

*Alimxodjayeva.G.B*

<https://orcid.org/0009-0007-8046-994X>

*Annotatsiya: Ushbu maqola Arab Bahori voqealaridan keyingi Misr tashqi siyosatini tahlil qiladi va uning shakllanishiga ta'sir qilgan iqtisodiy va geosiyosiy determinantlarni o'rganadi. 2011-yilda Husni Muborak hokimiyatdan ag'darilganidan so'ng “Musulmon birodarlar”ning qisqa muddatli hukmronligi va 2013-yilda Abdulfattoh as-Sisining hokimiyatga kelishi mamlakat siyosatida keskin burilishlar yuzaga keltirdi. Maqolada Misrning strategik geografik joylashuvi, Suvaysh kanali orqali global savdo yo'llarini nazorat qilishi, neft-gaz resurslari, turizm va xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalarining tashqi siyosatdagi roli yoritilgan. Shuningdek, Misrning AQSh va Rossiya bilan harbiy-iqtisodiy hamkorligi, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyasi ham tahlil qilingan. Arab Bahori davridan keyin mamlakatning mintaqaviy va global maydondagi strategik pozitsiyasini mustahkamlashdagi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: Misr tashqi siyosati, Arab Bahori, Iqtisodiy va geosiyosiy determinantlar, Abdulfattoh as-Sisi, Suvaysh kanali*

*Abstract: This article analyzes Egypt's foreign policy in the aftermath of the Arab Spring and examines the economic and geopolitical determinants that have shaped its development. Following Hosni Mubarak's removal from power in 2011, the short-lived rule of the Muslim Brotherhood and the ascent of Abdel Fattah el-Sisi to power in 2013 brought about significant shifts in the country's political landscape. The article highlights the role of Egypt's strategic geographic location, its control over global trade routes through the Suez Canal, its oil and gas resources, tourism*



*sector, and relationships with international financial institutions in shaping its foreign policy. Additionally, Egypt's military-economic cooperation with the United States and Russia, as well as its foreign policy strategy aimed at ensuring regional security, are analyzed. The study focuses on identifying the key factors that have reinforced Egypt's strategic position in the regional and global arena after the Arab Spring.*

**Keywords:** *Egyptian Foreign Policy, Arab Spring, Economic and Geopolitical Determinants, Abdel Fattah el-Sisi, Suez Canal*

2011-yilning 25-yanvarida boshlangan Arab Bahori harakatlari Misr tarixida yangi davrni boshlab berdi. Uzoq vaqt davomida hokimiyatda bo'lgan Husni Muborak rejimining ag'darilishi nafaqat ichki siyosiy tuzumni, balki mamlakatning tashqi siyosiy kursini ham tubdan o'zgartirdi. 2012-yilda "Musulmon birodarlar" harakatining vakili Muhammad Mursiy saylanganidan so'ng, mamlakatning tashqi siyosiy orientatsiyasi G'arbiy davlatlarga nisbatan salbiy tus oldi. Biroq, 2013-yilning 3-iyulida amalga oshirilgan harbiy to'ntarish va Abdulfattoh as-Sisining 2014-yilda prezident etib saylanishi bilan Misr tashqi siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. As-Sisi rejimi "Misr avvalo" (Egypt First) prinsipiga asoslangan tashqi siyosat olib bordi. Ushbu strategiya mamlakatning ichki iqtisodiy muammolarini hal qilish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Tashqi siyosatning shakllanishida geografik joylashuv, iqtisodiy imkoniyatlar va xalqaro hamkorlik munosabatlari muhim rol o'ynadi.<sup>1</sup>

Misr tashqi siyosatda uzoq vaqtdan beri AQShning Yaqin Sharqdagi muhim ittifoqchisi va AQSh milliy xavfsizlik manfaatlari uchun ahamiyatli davlat sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Falastin–Isroil mojarosi keskinlashgan sharoitda uning salohiyati yanada oshgani kuzatiladi. Bu esa, avvalo, geografik joylashuvi bilan bog'liq: Qohira Suvaysh kanalini nazorat qiladi. Mazkur kanal jahon savdosi hamda AQSh qudratining global proeksiyasi nuqtai nazaridan muhim logistika arteriyasi hisoblanadi. Shuningdek, Kemp-Devid kelishuvlari Isroil va Misr

<sup>1</sup> <https://www.chathamhouse.org/2025/12/egypts-foreign-policy-will-remain-too-little-too-late-2026>



o'rtasidagi urushning tugashiga olib kelgan muhim omil sanaladi. AQSH Kongressi Tadqiqot xizmati (CRS) ma'lumotlariga ko'ra, Suvaysh kanali orqali dunyo neftining qariyb 7 foizi tashilgan. V. I. Bartenev ta'kidlashicha, Misrning ahamiyati uning "Islom davlati" (Rossiyada taqiqlangan terroristik tashkilot) guruhiga qarshi kurashdagi ishtiroki, xususan AQSH Harbiy-havo kuchlari uchun havo hududini taqdim etishi bilan ham izohlanadi.<sup>2</sup>

2013-yildagi harbiy to'ntarish va as-Sisining hokimiyat tepasiga kelishidan so'ng, Rossiya-Misr munosabatlari yangi turtki oldi. Rossiya buyuk davlatlar orasida birinchi bo'lib Misr harbiylarining davlat to'ntarishidan keyingi harakatlarini qo'llab-quvvatladi va yangi hokimiyat bilan aloqalarni rivojlantirishga kirishdi. Bu, AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan tanqid qilinayotgan sharoitda, Misr hukumatining xalqaro miqyosda tez tan olinishini ta'minladi. Moskva bilan munosabatlarni rivojlantirish orqali Qohira o'z tashqi siyosatini diversifikatsiya qilish, qurol-yarog'ning muqobil manbalarini topish imkoniyatiga ega bo'ldi va barqaror oziq-ovqat ta'minoti kafolatlarini oldi. 2014-yildan beri Misrning yangi prezidenti Abdulfattoh as-Sisi va Vladimir Putin o'ndan ortiq marta, jumladan Qohira va Moskvaga o'zaro tashriflar doirasida uchrashgani e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, 2013-yildan buyon ikki mamlakat tashqi ishlar va mudofaa vazirlarini o'z ichiga olgan "2+2" formati faoliyat yuritmoqda. Misr Rossiya bilan bunday formula bo'yicha hamkorlik qiladigan oltita xorijiy davlatdan biridir.

2018-yilda Rossiya Federatsiyasi va MAR keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi yangilangan bitimni (Rossiya manbalarida — Keng qamrovli sheriklik va strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnoma) imzoladilar. Bu bitim Misr parlamenti tomonidan ma'qullanganidan so'ng, 2021-yil yanvar oyida kuchga kirdi. Ushbu bitim nafaqat ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarga ko'maklashishni, balki terrorizm, harbiy shartnomalar, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq masalalar bo'yicha yuqori darajadagi hamkorlikni ham nazarda tutadi. Misrlik ekspertlar nuqtai nazaridan, 2015-yildan keyin Rossiya harbiy

<sup>2</sup> С. Е. О. Специфика американо-египетских отношений после событий «арабской весны» // Локус: люди, общество, культуры, смыслы. – 2023. – Т. 14. – № 4. – С. 113.



ishtiroki va qurol-yarog‘ yetkazib berishni ko‘paytirish hisobiga Yaqin Sharqdagi ta’sirli o‘yinchiga aylandi. U mintaqadagi vaziyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. MAR manfaatlari nuqtai nazaridan, Rossiya Federatsiyasi Falastin muammosini hal qilish va Liviyadagi inqirozni bartaraf etishda hamkor hisoblanadi. Misrlik mualliflar Qohira va Moskva o‘rtasida Liviya masalasi bo‘yicha yaqin hamkorlik mavjudligini ta’kidlashgan. Ikkala davlat ham Liviyada Turkiya ta’sirini cheklashga intiladi va sharqdagi asosiy kuchlar — Vakillar palatasi hamda Liviya milliy armiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. As-Sisi hokimiyatga kelganidan so‘ng Misr doimo Rossiyaning Suriyadagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlab kelgani, 2021-yilda esa Moskva bilan birgalikda Suriyaning Arab davlatlari ligasiga qaytishini yoqlagani muhim ahamiyatga ega.<sup>3</sup>

## **Misrning tashqi siyosatini shakllantirishda iqtisodiy va geosiyosiy omillar**

Mamlakat iqtisodiyoti uzoq yillardan beri neft, gaz, turizm va Suvaysh kanali orqali olingan daromadlarga tayanadi. Suvaysh kanali, ayniqsa, global savdo yo‘llaridagi strategik ahamiyati bilan Misrga xalqaro siyosatda muhim pozitsiya beradi. Shu sababli Misr tashqi siyosatida kanaldan keladigan daromadlarni himoya qilish va transport xavfsizligini ta’minlash birinchi o‘rinda turadi.

Shuningdek, Misrning tashqi qarzi va moliyaviy resurslarining cheklanganligi mamlakatni xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishga majbur qiladi. Masalan, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Fondi bilan tuzilgan kelishuvlar Misrning ichki iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, tashqi siyosatida ham muayyan cheklovlar va majburiyatlarni yaratadi. Turizm sektori ham Misr tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatadi. Turizm daromadlari mamlakat iqtisodiy o‘sishi va valyuta zaxiralarini to‘ldirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, Misrning global xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga intilishi bevosita iqtisodiy manfaatlarga bog‘liq. Xavfsizlik

<sup>3</sup> С. Н. Ю. «Доктрина Сиси»: Египет и великие державы после «арабской весны». Сравнительный анализ отношений Каира с Вашингтоном, Пекином и Москвой // Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения. – 2023. – Т. 7. – Вып. 1. – С. 76.



va siyosiy barqarorlikni ta'minlash orqali turistlar oqimini jalb qilish va iqtisodiy barqarorlikni saqlash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, Misrning energiya resurslarini eksport qilish imkoniyati ham tashqi siyosatning iqtisodiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Neft va gaz konlaridan olinadigan daromad mamlakatning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, energiya eksporti Misrni global energetika bozorida strategik hamkorlikka undaydi, bu esa tashqi siyosatni shakllantirishda muhim faktor bo'ladi.<sup>4</sup>

Energetika sektorida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. 2015-yilda O'rta dengizda Zohr gaz koni kashf etilishi 850 milliard kubometrli zaxiralar bilan Afrikaning eng yirik gaz koni — Misr uchun strategik imkoniyat ochdi. Bu kashfiyot Misr-Italiya munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi (ENI kompaniyasi bosh operator sifatida ishtirok etdi) va Yer o'rtasi dengizidagi energetika siyosatida Misrning rolini kuchaytirdi.<sup>5</sup>

Siyosiy beqarorlik va hokimiyat almashinuvi Misrning mintaqaviy va global maydondagi strategiyasini qayta ko'rib chiqishga turtki berdi. Shu sababli, tashqi siyosatning geosiyosiy determinantlari Arab Bahoridan keyin muhim ahamiyat kasb etdi. Misrning geografik joylashuvi – Shimoliy Afrika va Sharqiy Arab mamlakatlarini bog'lovchi hududda joylashganligi – mamlakatga mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda strategik imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, Suvaysh kanali orqali global savdo va transport yo'llari o'tishi Misrni xalqaro siyosatda muhim o'yinchiga aylantiradi. Arab Bahori natijasida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik mintaqadagi boshqa davlatlar bilan aloqalarni qayta tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. Misrning Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Qatardagi diplomatik hamkorliklari, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha strategik kelishuvlar geosiyosiy determinant sifatida muhim ahamiyatga ega. Misrning tashqi siyosatidagi geosiyosiy determinantlardan biri uning mintaqaviy xavfsizlikdagi roli

<sup>4</sup> World Bank. Egypt Economic Monitor 2022. <https://www.worldbank.org/en/country/egypt/publication/economic-monitor>

<sup>5</sup> U.S. Energy Information Administration, «Egypt: Country Analysis Brief» (Washington DC: EIA, 2021), <<https://www.eia.gov/international/analysis/country/EGY>>.



hisoblanadi. Arab Bahoridan keyin mamlakat terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashni tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylantirdi. Falastin-Isroil mojarosida faol diplomatik pozitsiya, Gʻarbiy Sohil va Liviyadagi mintaqaviy barqarorlik masalalari Misrning geosiyosiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Arab Bahoridan keyin Rossiya va AQSh bilan strategik hamkorlik, qurol yetkazib berish, investitsiya va moliyaviy yordam shartnomalari mamlakatning tashqi siyosiy vaziyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Misr Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi mintaqaviy geosiyosiy oʻzgarishlarni diqqat bilan kuzatib boradi va mintaqaviy ittifoqchilar bilan hamkorlikni kuchaytiradi. Arab Bahoridan keyin Misr tashqi siyosatining geosiyosiy determinantlari – strategik geografik joylashuv, mintaqaviy xavfsizlik, global kuchlar bilan hamkorlik va diplomatik aloqalarni rivojlantirish – mamlakatning mintaqaviy va global maydondagi strategik yoʻnalishlarini belgilashda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.<sup>6</sup>

Misr tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini belgilashga taʼsir koʻrsatgan muhim omillar qatoriga mamlakatning koʻp asrlik tarixiy merosini kiritish lozim. Rossiyalik tadqiqotchi V.P. Yurchenkoning fikricha, arab dunyosini Misrsiz tasavvur qilib boʻlmaydi, chunki Misr arab dunyosining ikki asosiy qismi — Magʻrib va Mashriq oʻrtasidagi bogʻlovchi halqa boʻlib, koʻp asrlar davomida arab va islom madaniyatining markazi sifatida xizmat qilgan. Davlat hududidagi koʻplab tarixiy va madaniy obyektlar, shuningdek, Oʻrta yer dengizi va Qizil dengizning choʻzilgan qirgʻoq chiziqlari Misrga jahon sayyohlik markazlaridan biriga aylanish imkonini bergan. Turizm sohasi Misr iqtisodiyotida Suvaysh kanalidan keladigan daromad hamda neft va neft mahsulotlari eksportidan keyin uchinchi oʻrinda turadi. 1995-yildan 2007-yilgacha turizm sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 11,5 foizdan 19,5 foizga koʻtarilib, Misr iqtisodiyotiga 8,7 milliard dollardan ortiq daromad keltirgan. Mamlakatning iqtisodiy faol aholisining taxminan 12 foizi turizm sohasida band boʻlib, norasmiy maʼlumotlarga koʻra, bu koʻrsatkich 20 foizga yetadi. XX asrda jahon sayyohlik bozorining oʻzgarishi Misrga global miqyosda oʻz oʻrnini

<sup>6</sup> Shehata M. Egypt's foreign policy after the Arab Spring // Middle East Policy. – 2021. – C. 48.



egallash imkonini berdi. 2012-yilga kelib Misr eng mashhur sayyohlik yoʻnalishlaridan biriga aylandi; milliy iqtisodiyoti esa yalpi ichki mahsulot darajasi boʻyicha dunyoda 23-oʻrinni egallab, Turkiya va Tailandning eng yirik sayyohlik iqtisodiyotlari bilan bir qatorda turardi. Yaqin Sharq yoʻnalishidagi sayyohlik oqimining toʻrtidan bir qismi Misrga toʻgʻri keladi, bu jahon turizmi hajmining 1,2 foizini tashkil etadi.<sup>7</sup>

## **Xulosa**

“Arab bahori” voqealaridan keyin Misr tashqi siyosati tubdan oʻzgardi. 2013-yilda as-Sisining hokimiyatga kelishi bilan mamlakatda xavfsizlik, barqarorlik va radikalizmga qarshi kurash tashqi siyosatning asosiy yoʻnalishiga aylandi. “Musulmon birodarlar”ning taqiqlanishi va Saudiya Arabistoni hamda BAA bilan yaqin hamkorlik Misrning mintaqaviy siyosiy pozitsiyasini mustahkamladi. AQSh bilan strategik aloqalar saqlanib qolgan boʻlsa-da, Qohira Rossiya bilan munosabatlarni kengaytirish orqali tashqi siyosatini diversifikatsiya qildi.

Iqtisodiy determinantlar — Suvaysh kanali, turizm, energiya resurslari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik — Misr tashqi siyosatida yetakchi oʻrin tutadi. Bu omillar mamlakatni barqarorlikni saqlash va investitsiyalarni jalb qilishga yoʻnaltiradi. Geosiyosiy jihatdan esa Misr mintaqada muhim oʻyinchi boʻlib, Falastin-Isroil mojarosi, Liviya va Suriya masalalarida faol diplomatik rol oʻynaydi. Strategik geografik joylashuv va Suvaysh kanalining global ahamiyati esa Qohiraning tashqi siyosiy salohiyatini yanada kuchaytiradi. Umuman olganda, Arab bahoridan keyingi Misr tashqi siyosati xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar va koʻp vektorli hamkorlikka asoslangan yangi model sifatida shakllandi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1.С. Е. О. Специфика американо-египетских отношений после событий «арабской весны» // Локус: люди, общество, культуры, смыслы. – 2023. – Т. 14. – № 4. – С. 113–131

<sup>7</sup> П. А. А. Исторические детерминанты внешней политики Арабской Республики Египет // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Всеобщая история. – 2018. – Т. 10. – № 2. – С. 193.



2. <https://www.chathamhouse.org/2025/12/egypts-foreign-policy-will-remain-too-little-too-late-2026>
3. С. Н. Ю. «Доктрина Сиси»: Египет и великие державы после «арабской весны». Сравнительный анализ отношений Каира с Вашингтоном, Пекином и Москвой // Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения. – 2023. – Т. 7. – Вып. 1. – С. 76.
4. П. А. А. Исторические детерминанты внешней политики Арабской Республики Египет // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Всеобщая история. – 2018. – Т. 10. – № 2. – С. 192–200.
5. World Bank. Egypt Economic Monitor [Elektron resurs]. – 2022. – URL: <https://www.worldbank.org/en/country/egypt/publication/economic-monitor>
6. Shehata M. Egypt's foreign policy after the Arab Spring // Middle East Policy. – 2021. – С. 45–60.
7. U.S. Energy Information Administration, «Egypt: Country Analysis Brief» (WashingtonDC:EIA,2021), <https://www.eia.gov/international/analysis/country/EG>  
Y